



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



XORIJ TILSHUNOSLIGIDA O'XSHATISHLAR TADQIQI THE STUDY OF SIMILES IN FOREIGN LINGUISTICS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/QXAG4859

Lafasova Mavjuda Tulqin qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

universiteti stajyor-doktoranti

mavjudalafasova352@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy asar matnida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'xshatishlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Tilshunoslikda umumnutq va badiiy o'xshatishlar va ularning o'ziga xosliklari haqida turli mulohazalar keltirilib izohlanadi. O'xshatishlarning xorij tilshunosligida o'rganilishi, xorij tilshunos olimlarining o'xshatishlar borasidagi qarashlari, o'xshatishlar tadqiq etilgan asarlari haqida fikr yuritiladi. Shu yo'nalishda yaratilgan xorijiy ilmiy adabiyotlar va maqolalar tahlilga tortiladi. Asar mualliflarining o'xshatishlarni o'rganish jarayoniga qo'shgan hissalar haqida atroflicha fikr yuritiladi. Xorij tilshunoslarining o'xshatishlarni o'rganish tendensiyalari to'g'risida fikr yuritilib, ularga munosabat bildiriladi.

Kalit so'zlar: o'xshatish, o'xshatishlarning turlari, o'xshatish etaloni, o'xshatish vositasi, turg'un o'xshatish, erkin o'xshatish.

Annotatsion. this article discusses the distinctive features of similes that hold significant importance in literary texts. Various views and explanations are presented regarding the general and artistic functions of similes in linguistics. The study further examines the investigation of similes in foreign linguistics, the approaches of foreign scholars toward similes, and the works in which similes have been analyzed. In this regard, foreign scientific literature and articles devoted to the study of similes are reviewed and subjected to analysis. Attention is also given to the contributions of foreign researchers to the study of similes and their role in the development of this field. Finally, contemporary tendencies in the study of similes are considered, and critical reflections on them are provided.

Keywords: simile, classifications of similes, simile standard, stylistic device of simile, fixed simile, free simile.

Badiiy adabiyot tilining eng asosiy tasvir vositalaridan biri bo'lgan o'xshatishlar o'zining obrazlilik, tasviriylik, emotsional-ekspressivlik kabi xususiyatlari bilan badiiy asar tilida yaqqol gavdalanib turadi. U badiiy asarning komponentlari bo'lmish portret, ruhiy kechinma, nutqiy xarakterestika, peyzaj, xarakterlar tasvirida qo'llanadi va badiiy asar yuzaga kelishiga hissa qo'shadi.



O'xshatishlar tashqi olamni bilishning eng qadimiy usullaridan biri bo'lib, ular muayyan bir xalqning ilk tafakkur tarzi va tasavvurlarini o'zida namoyon etadi. O'xshatishlarning paydo bo'lishida shaxslarning tajribasidan tashqari muayyan xalqning urf-odat, ana'analari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'xshatish faqatgina tashqi dunyoni bilish usuli bo'libgina qolmay madaniyatni ham o'rganishga imkon beradigan eng samarali usullardan biridir.

Ta'kidlash joizki, insonning dunyoni bilishida o'xshatish-qiyoslash benihoya katta o'rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, solishtirish tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri o'laroq inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tilda ham o'z aksini topadi. Shuni ta'kidlash lozimki, qiyoslash bilingan narsa-xususiyat vositasida bilinmagan narsa-xususiyatni osonlik bilan bilish imkoniyatini beradi, misol uchun toshning qattiqligi bilingan xususiyat bo'lsa, endi boshqa narsalarning shu xususiyati toshga qiyosan (toshdan qattiq) yoki toshga o'xshatish orqali(toshday qattiq) osonlik bilan anglashilaverishi mumkin [Махмудов, 1984: 259].

O'xshatish jarayoni insoniyat aqliy faoliyatining dastlabki davrlaridayoq shakllangan kognitiv jarayon hisoblanadi. Inson olamni o'rganar ekan, olam elementlarini bir-biriga taqqoslagan, solishtirgan, ularning umumiy va farqli tomonlarini ajratgan. Hatto o'xshatish jarayoni hisobdan, sanoqdan ham avvalgi aqliy faoliyat sifatida talqin qilinadi.[Ротенфельд, 2017: 9-10].

Ta'kidlash lozimki, o'xshatishlar nutqda sezilarli darajada katta badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega bo'lgan konstruksiyalardir. Shu sababli o'xshatishlar dunyo tilshunosligida eng qadimgi davrlardan boshlab nutq ta'sirchanligini ta'minlaydigan alohida vosita sifatida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Panini grammatikasidan boshlab(eramizdan avvalgi IV asr) qadimgi hind-poetik grammatik traktatlarida o'xshatishlar poetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishlarning muntazam to'rt unsurdan tashkil topishi ta'kidlangan, ya'ni: 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt; 2) unga o'xshash bo'lgan narsa yoki obyekt; 3) o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning formal ko'rsatkichi[Невелова, 1979: 38.]. O'zbek tilida ham, boshqa barcha tillarda bo'lgani kabi o'xshatishlar to'rt unsurdan tashkil topadi va ular o'xshatish subyekt, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi deb nomlanadi.

Ta'kidlash lozimki, o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham nuqtda ular hamisha badiiy-estetik ahamiyatga ega bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini taminlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi mavjud: 1)



individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar; 2) umumxalq yoki turg'un(doimiy) o'xshatishlar.

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining o'ziga xos mahoartini namoyon etuvchi vositalardan biri sanaladi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda turli original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat yoki predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yorqin aks ettiradi.

Turg'un o'xshatishlarda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa ham vaqt o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, domiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa o'zgarishsiz olib kiriladi.

O'xshatishlar xalqning o'ziga xos ko'rish va idrok yo'sini, obrazli tafakkur va taxayyul intozimini ham aks ettiradi. Shuning uchun ham tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, obyektiv olamdagi narsa-hodisalar o'rtasidagi komparativ aloqalarni ijodkorlar obrazli qiyoslash asosida son-sanoqsiz va xilma-xil o'xshatishlar yaratsalar ham ularning juda ham oz qismi tilda turg'unlashadi. Chunki bunday o'xshatishlar tilda xalqning tajribalari, urf-odatlarini, dunyoqarashi, madaniyati va tarixining o'ziga xos jihatlariga muvofiq ravishda saqlanishi tufayli turg'un o'xshatishlar ham milliy tus kasb etadi[Огольцев, 2001: 5.]

Rus tilshunosligida turg'un o'xshatishlar uzoq yillar davomida ko'plab tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, XVIII asrda Rossiyada M.V.Lomonosovning o'xshatishlarga bag'ishlangan ko'plab asarlari paydo bo'ldi. M.V.Lomonosov o'xshatishlarni nafaqat ritorikaning, balki grammatikaning bir qismi sifatida o'rgangan.

Rus tilidagi turg'un o'xshatishlar lug'atini yaratgan prof. V.M.Ogolsev ularning erkin o'xshatishlardan farqli ravishda nutq hodisasi emas, balki til tizimining tayyor holda qo'llanadigan birliklari ekanligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, bu birliklarning jami rus tili frazeologiyasining alohida, komparativ qatlamini tarkib toptiradi. Ayni paytda u turg'un o'xshatishlarning aksariyati ko'p ma'noli ekanligini, ular antonimik hamda sinonimik qatorlarni ham hosil qila olishini uqtiradi. U rus tili frazeologiyasining eng katta lug'ati bo'lmish A.I.Molotkov tahriri ostidagi lug'at (M., 1967, 1978) 4000 dan ziyod maqolani o'z ichiga olganiga qaramasdan atigi 100 ga yaqin turg'un o'xshatishnigina aks ettirganligini qayd etadi, bu holatni esa maxsus til birligi bo'lgan turg'un o'xshatishlarning tuzilmaviy-semantik o'ziga xos ekanligi bilan izohlaydi[Огольцев, 2001: 6.].

Tildagi o'xshatishlarni tadqiq etgan tilshunoslarning aksariyati turg'un o'xshatishlarning idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo'lishini, ular ko'p asrlar mobaynida shaxslar nutqida qo'llanish natijasi sifatida turg'unlashib, so'zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib



qolishini, o'xshatish etalonining, ya'ni o'xshatish asosidagi obrazning muayyan belgi-predmet bilan muntazam va qat'iy bog'liq bo'lishini alohida ta'kidlaydi[Некрасова, 2010: 80].

Rus tilshunosligida har qanday o'xshatish konstruksiyasini muayyan sintaktik struktura sifatida o'rganish an'anaga aylangan. Ayrim rus tilshunoslari hatto erkin o'xshatish konstruksiyalarini ham, turg'un o'xshatish konstruksiyalarini ham sintaktik tuzilishlar sifatida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Tadqiqotchi M. I. Cheremisina 1976-yilgacha rus tilshunosligida o'xshatish konstruksiyalari tadqiqiga bag'ishlangan 100 dan ortiq ish e'lon qilinganiga qaramasdan hali-hamon bunday konstruksiyalarning sintaktik mohiyati yetarli darajada ochib berilmaganligini ta'kidlaydi. Uning qayd etishicha, o'xshatish sintaktik kategoriya bo'lib, uning tadqiqi sintaksis doirasida olib borilishi lozim. O'xshatish tilshunoslikning ushbu bo'limi metodlari va usullari vositasida tadqiq etilishi, sintaksisning maxsus tili, ya'ni uning terminlari va tushunchalari asosida tavsiflanishi kerak[Черемисина,1976:5-7]. U ayni paytda o'xshatish konstruksiyalarining benihoya xilma-xil turlari mavjudligini, sintaktik sistematika doirasida ularni yagona bir sinfga birlashtirish imkonsiz ekanini aytadi, ammo baribir sintaksis bu hodisa talqinida yetakchilik qilishi lozim ekanligini ta'kidlaydi.

XX asr rus tilshunoslari V.M.Ogolsev, M.I.Cheremisina, E.T.Cherkasova, V.P.Berkov, D.M.Kalashnikov o'xshatishlarning lingvistik kategoriya sifatida o'rganilishiga munosib hissa qo'shdilar. V.M.Ogolsev, L.A.Lebedeva va V.Mokiyenkolar turg'un o'xshatishlarning rus tilidagi izohli lug'atini yaratgan bo'lsalar, N.L.Shadrin tomonidan tuzilgan "Ruscha-inglizcha turg'un o'xshatishlar lug'ati"da rus tilidagi turg'un o'xshatishlar ingliz tilidagi tarjimalari bilan berilgan[Шадрин, 2003: 526].

V.M.Mokiyenkoning ta'kidlashicha, maqol, matal, o'xshatish va boshqa obrazli so'z birikmalarida milliy madaniyat yoki kundalik g'oyalarning kelib chiqishini ko'rish, unutilgan o'tmish lavhalarini o'qish mumkin[Мокиенко, 2007: 424].

O'xshatishlar uzoq yillar mobaynida tadqiqot obyekti bo'lib kelgan va hozirgi kunda ham turli yo'nalishlarda tadqiq etib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Махмудов Н. Семантико-синтактическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс... док-ра филол. наук Тошкент, 1984.
2. Мокиенко В.М. Образы русской речи : историко-этимологические очерки фразеологии –Москва: Флинта, 2007.
3. Невелова С. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. М. "Наука", 1979.
4. Некрасова Е. Сравнения общеязыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных идиолектов / Лингвистика и поэтика. – М., "Наука", 1979. – С. 225.; Устойчивые сравнения русского языка. Краснодар:



Кубанский ГУ, 2003 – С. 3.; Ф.Хакимзянов. О словаре устойчивых сравнений татарского языка // Российского тюркология. – Москва-Казань, 2010.

5. Оголцев В. Словарь устойчивых сравнений русского языка (синонимо-антонимический). –М. Русские словари. АСТ. Астрель 2001.

6. Ротенфельд Ю. Философия как наука о жизни. Двадцать пять потерянных веков. 2017.

7. Черемисина М. Сравнительные конструкции русского языка. – Новосибирск, “Наука”, 1976.

8. Шадрин Н.Л. Русско-английский словарь устойчивых сравнений. –Москва: Золотой век, 2003.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Iy7hDzQAAAAJ&citation_for_view=Iy7hDzQAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aiGGU2YAAAAJ&citation_for_view=aiGGU2YAAAAJ:YsMSGLbcyi4C

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=gHnKX3EAAAAJ&citation_for_view=gHnKX3EAAAAJ:kNdYIx-mwKoC

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=oSSeGakAAAAJ&citation_for_view=oSSeGakAAAAJ:u5HHmVD_uO8C

https://www.researchgate.net/publication/371445473_O'zbek_tili_va_adabiyoti_jurnali.



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafrö 'z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab' ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo'noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obyektı sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774